



O'ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARIDA PUNKTUATSIYANI QO'LLASHNING UMUMIY JIHATLARI

To'rayeva Dilbar Meyliyevna

Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi
dilbarturayeva270@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-mart 2023 yil
Ma'qullandi: 18-mart 2023 yil
Nashr qilindi: 23-mart 2023 yil

KEY WORDS

Ya'ni birgina tinish belgisi, masalan, vergul nafaqat muayyan so'z bilan ifodalangan bo'lakka ta'kid berishi, balki gap mundarijasini – so'zlarning semantik va grammatik aloqalarini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin.

ABSTRACT

Ma'lumki, tinish belgilari har bir til uchun yozma nutqni idrok etish va fikrni boshqalarga tushunarli tarzda yetkazishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu bois A.P.Chekov 1888-yil 13-fevralda N.A.Xlopkovga yozgan xatida tinish belgilarini "yozma nutqni o'qish notalari" deb atab, mohiyatan musiqiy notalariga o'xshatgan edi

Ma'lumki, tinish belgilari har bir til uchun yozma nutqni idrok etish va fikrni boshqalarga tushunarli tarzda yetkazishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu bois A.P.Chekov 1888-yil 13-fevralda N.A.Xlopkovga yozgan xatida tinish belgilarini "yozma nutqni o'qish notalari" deb atab, mohiyatan musiqiy notalariga o'xshatgan edi. Ayniqsa, muayyan so'z gapning tarkibida yoki matnda joylashuvi punktuatsiyaning mayjud bo'lishi yoki bo'lmasligiga bog'liq semantik o'zgarishlarni ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan hollarda tinish belgisining matn mazmunini anglash vositasi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni birgina tinish belgisi, masalan, vergul nafaqat muayyan so'z bilan ifodalangan bo'lakka ta'kid berishi, balki gap mundarijasini – so'zlarning semantik va grammatik aloqalarini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin.

Qiyoslanayotgan tillar – o'zbek tilida ham, rus tilida ham, ingliz tilida ham tinish belgilarining bu qirrasi to'la namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida *chiroyli paltoli qiz / chiroyli, paltoli qiz* jumlalarida birinchi holatda paltoning chiroyliligi, ikkinchi jumlada qizning chiroyliligi ma'nosi anglashiladi. Yoki: *Gullar chiroyli stolni bezab turibdi / Gullar chiroyli, stolni bezab turibdi*. Birinchi gapda *stol chiroyli*, sodda gap; ikkinchi gapda *gullar chiroyli*, qo'shma gap.

Xuddi shuningdek, ingliz tilida ham tinish belgisiga ushbu funksiyalar yuklanganini kuzatish mumkin. Masalan, *Let's eat, grandma! / Let's eat grandma!* (L. Trass) Birinchi gapda *grandma (Buvi, ketdik ovqatlanamiz)* undalma, ikkinchi gapda hol (*Ketdik buvimni yeymiz*). *Tom Perry and I / Tom, Perry and I*. Birinchi jumla ikki kishi (*Tom Perri va men*), ikkinchi jumlada uch kishi (*Tom, Perri va men*) nazarda tutilmoxda. Yoki: *The headmaster said the teacher is a fool / The headmaster, said the teacher, is a fool*. Birinchi gap sodda, ikkinchi gap qo'shma gap. Yoki rus tilida punktuatsiya bo'yicha bajarilgan ishlarda qo'llanishi an'anaga aylangan *Казнить,*

нельзя помиловать! / Казнить нельзя, помиловать! jumlalarida ham vergulning gapning ham semantik asosi, ham sintaktik qurilishiga jiddiy ta'sir etayotganini misol sifatida keltirish mumkin.

Zamonaviy punktuatsiya tinish belgilarining aynan ana shunday imkoniyatlariga katta e'tibor qaratmoqda. Tilshunoslikda tinish belgilarining tafakkur mahsulini til sohibining millati, aqliy faoliyati, uning qiziqishlariga mos ravishda nutqda yuzaga chiqarish bilan bog'liq qirralarini bir necha tillar misollarida qiyosiy o'rghanish bilan birga xususiy va umumiylari, me'yoriy va tartibga bo'ysunmaydigan punktuatsiya tadqiqiga e'tibor kuchaymoqda.

Ayni paytda dunyo yozuvlarining aksariyati, jumladan, o'zbek, ingliz, rus tilida grafikaning markaziy sistemasiga kiritilgan quyidagi tinish belgilaridan foydalaniadi:

Nº	grafik sh.	o'zbekcha	inglizcha	ruscha
1.	.	nuqta	1) full stop (period, full point); 2) dot	точка
2.	?	so'roq belgisi	question mark (interrogation)	вопросительный знак
3.	!	undov belgisi	exclamation mark (exclamation point)	восклицательный знак
4.	;	nuqtali vergul	semicolon	Точка с запятой
5.	...	ko'p nuqta	ellipsis (marks of omission, dots)	многоточие
6.	,	vergul	comma	запятая
7.	:	ikki nuqta	colon	двоеточие
8.	-	tire	dash	тире
9.	-		hiphen (defis)	
10	(...)	qavs	brackets (parenthesis)	скобки
11	"..."	qo'sh tirnoq	quotation marks (inverted commas)	кавычки
12	'		apostrophe	

Masalan, ingliz tilida garchi tinish belgilari yozuv uchun u qadar muhim mezon sanalmasa-da, ularning soni punktuatsiyasi juda murakkab va qat'iy bo'lgan rus tilidagidan ko'p; 12ta. Ingliz tilida defis (hiphen) va apostrof (apostrophe) ham tinish belgisi hisoblanadi. Tirening ikki ko'rinishi – katta tire (Em Dash) va kichik tire (En Dash) farqlanadi. Apostrof (') ikki vazifa – ajratish va qisqartirish (*It's a nasty day* (qisqartirish "It is") vazifalarini bajaradi.

Yuqoridagi belgilarning turli matn ko'rinishlariga xos bo'lgan uslubiy shakllari, masalan, qo'shtirnoqning bir necha alternativ variantlari – birtirnoq ('...'), ('...'), (« ») yoki qo'shtirnoq («...»), («...»), (« «); neytral ("..."), ('...'), vertikal ('...'), («...»), qo'lyozma ("...") yoki tipografik (bosma) yozuv uchun xoslangan to'mtoq («...»), ochuvchi (") va yopuvchi (") kabi shakllarining mavjudligi, kompyuter klaviaturalarida qo'shtirnoqning mazkur ko'rinishlarini to'g'ridan-to'g'ri kiritish imkonи bo'limgan hollarda, odatda, neytral shaklidan («...») foydalaniishi, kompyuter dasturlarida u "aqli tirnoq" nomi bilan yuritilib, qo'shtirnoqning barcha shakllariga xos funksiyani bajarishi kabi. Xuddi shuningdek, ingliz yozuvida tire, qavsning ham (...), [...], {...}, (...), kompyuter lingvistikasida <...>) usluban farqlanuvchi shakllari farqlanadi. Masalan, o'zbek tilida ham tinish belgilaring usluban xoslanishi va shunga ko'ra ayrim tinish belgilaring turli ko'rinishlari paydo bo'lganini kuzatish mumkin: "Ilmiy uslubda,

to'rtburchak qavsning [...] ham ishlatilishi uchraydi. Xususan, kimyo, matematika, geometriya kabi fanlarda formulalarni, ona tilida mashqlarni berishda to'rtburchak qavsdan foydalaniladi: *Egalik qo'shimchasi qo'shilganda shah[a]ri, o'r[i]ni, sing[i]lisi so'zlaridagi "a", "i" tovushlari qoidaga ko'ra tushiriladi.* Ba'zan, qavsning bu ikki turini qo'llashda o'ziga xoslik kuzatilishi ham mumkin. Ilmiy matnlarda kiritmalarni oddiy qavslar bilan, sitatalar qo'llanganda manbaning adabiyotlar ro'yxatidagi raqamini to'rtburchak qavs bilan, tilshunoslikda nutqiy birliklar – so'zlarni oddiy qavs bilan, lisoniy birliklar – leksemalarni, lisoniy qoliplarni to'tburchak qavs bilan berish ommalashmoqda: *[Yuz], [bet], [bashara], [chehra], [oraz] leksemalari bitta tushunchani ifodalaydi, lekin ularning ma'nolari o'zaro farqlanadi*.

Sintaksis doirasida shakllangan mavjud punktuatsion nazariyalarda qiyoslanayotgan har uch tilda ushbu tinish belgilariga quyidagi asosiy umumiy vazifalar yuklanishi kuzatiladi:

Tinish belgilarini qo'llashning umumiy tamoyillari hamda vazifalari asosida ishlab chiqilgan quyidagi umumiy mezonlar ayni paytda ingliz, rus va o'zbek tillari uchun birdek amal qiladi:

1. Nuqta. Точка. Full stop or period (Dot)

1.1. Gapning tugallanganligiga ishora qilish, matn tarkibidagi gaplarni ajratish: *Dimoqqa qizigan asfalt hidi uriladi.* (O'.Hoshimov) / Девочка приехала растерянная и счастливая. (К.Симонов) / *That is the last question I remember. My body was unable to handle the rapid swelling in my brain and I lost consciousness before the ambulance arrived.* (J. Klir)

1.2. Qisqartirilganlikka ishora qilish: *A.Navoiy, Z.M.Bobur kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir.* /И. Виткевичу, ломким почерком наместника было начертано: "В солдаты. Без высуги..." (Б. Федотов) / *The correct answer was George W. Bush.* (J. Klir)

2. Vergul. Запятая. Comma

2.1. Gapning teng qismlari – uyushiq bo'laklarni ajratish: *Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo'g'otlarda chumchuqlar chirqillashadi.* (M.Ismoilii) / Так скрипач любит свою скрипку, картинки и портфель. (Ю. Семенов) / *Jane had an especial taste in music: rock, jazz, pop and classical.*

2.2. Undalmani chegarash: *Xudoning dargohi keng, o'g'lim, tavba qil.* (I.Sulton) / – Здравствуй, Мари, как ты проживаешь? — сказал он... (Л. Толстой) // *Come here, sonny," said he.* (R. Stivenson)

Ajratilgan bo'laklarni chegaralash: *Enaxonning onasi, o'zi pakana va uning ustiga bukchaygan kampir, o'yin qilgan bo'lib, hammani kuldirdi.* (Cho'lpon) / Казначей Досим-бей, погубивший в свое время князя Бековича, сидел по левую руку хана. (А. Горбовский) / *"But what can one expect from a woman like her, who wastes her days snuffling around behind Leo Nikolayevich's back like a dog, trying to unearth some new bone of discord."* (Jay Parini)

2.4. Kirish so'z va kirish birikmani ajratish: *Nihoyat, mo'ljallagan joyiga yetib keldi.* (Sh.Boshbekov) / Как известно, беда не приходит одна. (К.Симонов) / – Namely, it was her natural shyness. However, this work was not wasted. (J. Klir)

2.5. Ohang yordamida birikkan qo'shma gap qismlarini chegaralash: *Menga alam qilar, tilla baliqcha Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyon...* (A.Oripov) / Она уже не пела, а собравшиеся на небе тучки сделали ночь еще темнее (М. Горький) *The San Antonio Spurs, one of the most successful teams in NBA history, have a quote from social reformer.* (J.Klir)

Tahlillarimiz asosida xulosa qilish mumkinki, ayni paytda har uch til punktuatsion tizimida

amal qilayotgan joriy umumiy me'yorlarning asosida, asosan uch vazifa: ajratish; chegaralash; ishora qilish, ta'kidlash vazifalari yetakchilik qiladi.

Shuningdek, tinish belgilari tarixida nisbatan ilgari paydo bo'lgan, gap oxirida qo'llanadigan belgililar, masalan, nuqta, undov belgisi, so'roq belgisi kabilarning funksional jihatdan sodda bo'lib, asosan, ajratish vazifasini bajarishi va ushbu vazifalar bir necha tillarga mansub punktuatsion tizimda amal qilishi, keyinroq paydo bo'lgan gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilari, xususan, vergul, tire, qo'shtirnoq funksional jihatdan murakkab ekani, ajratish, chegaralash, ishora ma'nolarini bildirishi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Punktuatsiya. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
2. Baxriddinova B.M. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. Monografiya. -Toshkent: Akademnashr, 2015. – 64 b.
3. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilida punktuatsiya. – Toshkent: 1955.
4. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. - Toshkent: "O'qituvchi", 1976.
5. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasining dolzarb muammolari. "Ma'rifat", 2014 y., № 94
6. O'zbek tilining punktuatsiya qoidalari "Til va adabiyot ta'limi" Toshkent, 2015 yil, 1- 7-sonlar
7. Krysin L.P. K sootnosheniyu sistemy uazyka, yego normy i uzusa // Kommunikativnye issledovaniya: Nauchnyy jurnal. – 2017. – № 2 (12). – S. 20-31.
8. Biyanova M.V. Punktuatsionnye sistemy: sinxronnyy i diachronnyy aspekty: avtoref. diss. ... kand. filol.nauk. – Ijevsk, 2010. – 24 s. – S 3.
9. Kobrina N.A., Malakovskiy L.V. Angliyskaya punktuatsiya: Uchebnoe posobie. – Moskva: Izdatelstvo literatury na inostrannix yazyikax, 1959. –110 s. – S.10

